

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AHUNOVA TAMANNO ZOKIR QIZI

**ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI ILMIY-
TADQIQOT FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of the dissertation abstract for the degree of Doctor of Philosophy
(PhD) in Pedagogical Sciencies.**

Ahunova Tamanno Zokir qizi

Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga
tayyorlash texnologiyalari..... 3

Ахунова Таманно Зокир кизи

Технологии подготовки студентов к научно-исследовательской
деятельности в электронной информационно-образовательной среде..... 19

Ahunova Tamanno Zokir kizi

Technologies for preparing students for research activities in an electronic
information-educational environment 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 37

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AHUNOVA TAMANNO ZOKIR QIZI

**ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI ILMIY-
TADQIQOT FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2026

Falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9688 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.yangi.cspu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna
pedagogika fanlari doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Sariyev Rustam Bobomuradovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Fayziyeva Maxbubaxon Raximjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" 06 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (998) 71-712-27-55.; faks: (998) 71- 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (483 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (998) 70-712-27-55.; faks: (998) 71- 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "18" 05 kuni tarqatildi.
(2026-yil "18" 05 dagi 18 raqamli restr bayonnomasi).


F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik ishi (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inarida elektron ta'lim muhitini yaratish, ta'lim oluvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish, axborotning xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan. Oliy ta'limda elektron axborot-ta'lim muhitini kasbiy amaliyotga yo'naltirilgan holda yaratish, talabalarning akademik-ijtimoiy faoliyatini monitoring qilishning dasturiy ta'minotini modifikatsiyalash alohida ahamiyatga ega. Jahonda elektron axborot-ta'lim muhitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish UNESCO, World Bank va Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan universal siyosiy-huquqiy dasturlar orqali izchil amalga oshirilmoqda¹. Bunda talabalarning ilmiy gipoteza yaratish, model qurish, analitik fikrlash, sun'iy intellektdan foydalanib ilmiy natija chiqarish kabi tadqiqotchilik kompetensiyalarini integrativ rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko'plab oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida raqamli ta'lim resurslarining zamonaviy modellariga asoslangan qulay va mos muhitni yaratish, bo'lajak mutaxassislarining intellektual va izlanuvchanlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, ular uchun elektron axborot-ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish borasida izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, bo'lajak mutaxassislarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli kontent imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish hamda xavfsiz ochiq axborot makonini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning kompetentlikka yo'naltirilgan paradigmasi asosida elektron axborot-ta'lim muhitini modellashtirishda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, axborotni o'zlashtirish uslublariga yo'naltirilgan o'qitish shakllarini joriy etish, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini sohaga yo'naltirib transformatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda global axborot makonini yaratish, unda ta'lim oluvchilarning erkin va samarali harakatlanishini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chiqilgan. "Mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalarini keng joriy etish", -vazifalari belgilangan. Bu esa, mutaxassis tayyorlash tashkilotlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni, axborot-kommunikativ muhitga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli o'zbekiston-2030"

¹ UNESCO ICT in Education Policy Review, 2020.

KIRISH (doktorlik ishi (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida elektron ta'lim muhitini yaratish, ta'lim oluvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish, axborotning xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan. Oliy ta'limda elektron axborot-ta'lim muhitini kasbiy amaliyotga yo'naltirilgan holda yaratish, talabalarning akademik-ijtimoiy faoliyatini monitoring qilishning dasturiy ta'minotini modifikatsiyalash alohida ahamiyatga ega. Jahonda elektron axborot-ta'lim muhitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish UNESCO, World Bank va Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan universal siyosiy-huquqiy dasturlar orqali izchil amalga oshirilmoqda¹. Bunda talabalarning ilmiy gipoteza yaratish, model qurish, analitik fikrlash, sun'iy intellektdan foydalanib ilmiy natija chiqarish kabi tadqiqotchilik kompetensiyalarini integrativ rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko'plab oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida raqamli ta'lim resurslarining zamonaviy modellariga asoslangan qulay va mos muhitni yaratish, bo'lajak mutaxassislarining intellektual va izlanuvchanlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, ular uchun elektron axborot-ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish borasida izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, bo'lajak mutaxassislarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli kontent imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish hamda xavfsiz ochiq axborot makonini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning kompetentlikka yo'naltirilgan paradigmasi asosida elektron axborot-ta'lim muhitini modellashtirishda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, axborotni o'zlashtirish uslublariga yo'naltirilgan o'qitish shakllarini joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sohaga yo'naltirib transformatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda global axborot makonini yaratish, unda ta'lim oluvchilarning erkin va samarali harakatlanishini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chiqilgan. "Mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalarini keng joriy etish", -vazifalari belgilangan. Bu esa, mutaxassis tayyorlash tashkilotlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni, axborot-kommunikativ muhitga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli o'zbekiston-2030"

¹ UNESCO ICT in Education Policy Review, 2020.

strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "Yangi O'zbekiston taraqqiyot davrida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish choralari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan talim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda raqamli ta'lim muhiti va uning imkoniyatlari, elektron ta'limni modernizatsiyalash, ta'limiy dasturlarni yaratish masalalari A.Abduqodirov, U.Begimqulov, R.Boqiyev, R.Hamdamiyov, N.Kayumova, S.Rahmanqulova, U.Yuldashev, A.Gafforov, A.Ibraymov, A.Asqarov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa, elektron ta'lim vositalarini yaratish va o'quv jarayonida qo'llash masalalari Q.Olimov, N.Mavlonov, N.Muslimov, O.Abduquddusov, X.Muratov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning turli aspektlari V.Ovsyannikov, I.Lapchik, S.Kritskiy, A.Novikov, I.Tavgen, masofaviy o'qitish vositalari yordamida ta'limni tashkil etish masalalari E.Polat, M.Buxankin, E.Skibitskiy, V.Soldatkin, V.Tixomirov, S.Vershlovsiy, A.Jilin, A.Gustir va boshqalar tomonidan tahlil etilgan va amaliyotga tavsiyalar joriy etilgan.

Xorijiy olimlardan masofaviy o'qitish va elektron ta'lim bilan bog'liq ilmiy izlanishlar A.Bates, D.Keegan, Curtis J. Bonk, Mimi M.Lee, Thomas H.Reynolds, Wiyem Hachichaa, Ikram Amousa va boshqalar tomonidan olib borilgan bo'lsa, elektron ta'lim va tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish masalalari J. Dewey, D.Kolb, B. Bloom, A. Bates va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Guliston davlat pedagogika universitetining "Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash modelini takomillashtirish;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-didaktik ta'minotini takomillashtirish;

talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligini baholash mezonlari va metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona, Qarshi davlat texnika universitetlari va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali "Kompyuter injiniringi" yo'nalishining 358 nafar talabari jalb etildi.

Tadqiqot predmetini elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, shakli, texnologiya va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda o'quv-meyoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy so'rov, tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari amaliy-kasbiy faoliyatga oid hatti-harakatlar algoritmini raqamli muhitda o'rgatish metodikasini ilmiy kontekst sintezida maqbullashtirish asosida aniqlashtirilgan;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash modeli izlanuvchilikning muammo qo'yish, tajriba, natijalarni umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichlarida talabalarning raqamli moslashuvchanligini mobil resurslar kombinatsiyasida individual ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-didaktik ta'minoti ta'limiy-ilmiy loyihalarning raqamli konstruksiyalarini individual, frontal algoritmlar va real vaqt rejimlarida nazorat topshiriqlariga hamohangligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini baholashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv mezonlari axborot, texnik va o'quv metodik resurslar integratsiyasi hamda Global ilmiy ma'lumotlar tahlili tizimida raqamli metodika modifikatsiyasi ustuvorligida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari, amaliy-kasbiy faoliyatga oid hatti-harakatlar algoritmini raqamli muhitda o'rgatish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi "Ma'lumotlarning intellektual tahlili" uslubiy qo'llanma chop etilgan va amaliyotga joriy etilgan;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarning raqamli moslashuvchanligini mobil resurslar kombinatsiyasida individual ta'minlashga mo'ljallangan model ishlab chiqilgan va joriy etilgan;

talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-didaktik ta'minotini takomillashtirish hamda interfaol elektron axborot-ta'lim kontentini loyihalash-ilmiy-tadqiqotlarni diagnostika qilishga mo'ljallangan "Global ilmiy ma'lumotlar tahlili tizimi" platformasi ishlab chiqilgan;

talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlik mezonlari hamda ularning elektron axborot-ta'lim muhida erishilganlik darajalarini tahlil qilishning amaliy yo'nalgan indikatorlari takomillashtirilgan va mustaqil ta'lim topshiriqlariga singirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi elektron axborot-ta'lim muhitida talablarni ilmiy-tadqiqot faoliyatida qo'llanilgan yondashuv, usullar, texnologiya va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligini belgilovchi kompetensiyaviy modelning ilmiy asosda ishlab chiqilganligi, interfaol elektron kontentning tadqiqot algoritmlariga mos ssenariyli konstruksiyasi yaratilib, uning didaktik mexanizmlari aniqlanganligi, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini baholashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv mezonlari axborot, texnik va o'quv metodik resurslar integratsiyasi hamda Global ilmiy ma'lumotlar tahlili tizimida raqamli metodika modifikatsiyasi ustuvorligida takomillashtirilganligi, shuningdek, ushbu yondashuvlar asosida ilmiy izlanishga motivatsiyani shakllantirish bo'yicha pedagoglar uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga mo'ljallangan kompetensiyaviy modelning o'quv jarayoniga bevosita tatbiq etilishi, interfaol elektron kontentning tadqiqotga yo'naltirilgan ssenariyli konstruktori oliy ta'lim kurslarini loyihalashda qo'llanishi, ilmiy matnlarni avtomatik qayta ishlovchi OCR-semantik tahlil texnologiyasining talabalar ilmiy ishlarini monitoring qilishda samarali vosita sifatida joriy etilishi, shuningdek, ushbu yondashuvlar asosida professor-o'qituvchilar, magistrantlar va talabalar uchun ishlab chiqilgan elektron metodik materiallarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron axborot-ta'lim muhitida talablarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari amaliy-kasbiy faoliyatga oid hatti-harakatlar algoritmini raqamli muhitda o'rgatish metodikasini ilmiy kontekst sintezida maqbullashtirishga oid tavsiyalari "Ma'lumotlarning intellektual tahlili" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga intensiv jalb qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash modeli izlanuvchilikning muammo qo'yish, tajriba, natijalarni umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichlarida talabalarning raqamli moslashuvchanligini mobil resurslar kombinatsiyasida individual ta'minlashga oid

takliflari respublika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga joriy etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari" markazining 2025-yil 27-noyabrdagi 02/01-01-521-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim o'quv jarayonida talabalarning ilmiy faoliyat algoritmini ixtisoslik modullari kontekstida individual yo'naltirish uchun xizmat qilgan;

elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-didaktik ta'minoti ta'limiy-ilmiy loyihalarning raqamli konstruksiyalarini individual, frontal algoritmlar va real vaqt rejimlarida nazorat topshiriqlariga hamohangligini ta'minlashga oid tavsiyalari FDTU, QarDTU, TATU Samarqand filiallarning modullar kesimida nazorat topshiriqlari va jarayonini innovatsion tashkil etish amaliyotida qo'llangan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari" markazining 2025-yil 27-noyabrdagi 02/01-01-521-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak muxandis-dasturchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini tizimli tashkil etish modeli va uni amalga oshirish metodikasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola nashr qilingan. Shundan, 3 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnalda maqolalar nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan hamda tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining ishonchligi va amaliyotga joriy etilganligi yoritilgan. Bundan tashqari, dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi hamda e'lon qilingan ilmiy ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida muammoning ilmiy-nazariy jihatlari, talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mohiyati, tuzilmasi hamda vazifalari aniqlashtirilib, ushbu jarayonning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik kompetensiyaviy yondashuv asosida ko'rib chiqilib, uning motivatsion, kognitiv, faoliyatiy hamda refleksiv komponentlari tizimli ravishda yoritilgan.

"Ilmiy-tadqiqot faoliyati" tushunchasining pedagogik, didaktik va gnoseologik tabiati uzoq yillar davomida xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan turlicha talqin etilib, har bir yondashuv ta'lim taraqqiyotining muayyan bosqichi, mafkuraviy

qarashlari va texnologik imkoniyatlari bilan bog'liq holda shakllangan. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tushunchaning an'anaviy yondashuvlardan tortib, zamonaviy raqamli talqinlargacha bo'lgan evolyutsiyasini tahlil qilish hamda uni kompyuter injiniringi talabalari ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

V.I.Zagvyazinskiy ta'lim jarayonini maqsadga yo'naltirilgan integrativ yondashuvlar, tahliliy metodlar va amaliy-gnoseologik harakatlar tizimi sifatida izohlaydi. M.Falikman, E.Vano dasturiy ta'minotni talabalarning vaqt unumdorligi va xotirani yaxshilashi, A.W. Bates tomonidan ilgari surilgan yondashuv esa, texnologik vositalar va raqamli media orqali bilimlarni o'zlashtirish hamda o'zgaruvchan axborot muhitiga moslashish jarayoni sifatida talqin etadi. Uning SECTIONS modeli ta'lim jarayonida raqamli muhit, media imkoniyatlari va tarmoqlararo integratsiyani hisobga olishga asoslanadi.

Milliy ta'lim kontekstida U. Begimqulov, A. A.Abduqodirov, D.N.Mamatovlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini raqamli muhitda axborotni izlash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish kompetensiyasi bilan bog'laydi. Ushbu yondashuv talabani ilmiy faoliyatini interfaol, ochiq va dinamik tizim sifatida qarash imkonini beradi hamda milliy ta'lim ehtiyojlariga mos keladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuvlar muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan evristik jarayon sifatida talqin etilgan bo'lib, ushbu yondashuvda texnologiyalar asosan vosita sifatida qaralib, ta'lim jarayonida raqamli va texnologik omillar to'liq qamrab olinmagan.

Tahlillarga tayangan holda dissertatsiya doirasida talabani ilmiy tayyorgarlik darajalarini raqamli ekotizimning jadal o'zgaruvchan talablariga moslashtiruvchi, sun'iy intellekt, algoritmik tafakkur hamda data-analitika texnologiyalari bilan integratsiyalashgan to'rt komponentli mualliflik tasnifi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv kompyuter injiniringi talabalarini ilmiy faoliyatga tayyorlashning an'anaviy modellardan farq qiluvchi yaxlit intellektual tizimini ifodalaydi hamda o'zaro bog'liq kognitiv, motivatsion, faoliyatiy va refleksiv komponentlarni qamrab oladi.

Ushbu tadqiqotlarni tizimlashtirishda elektron axborot ta'lim muhiti (*EATM*)ni tashkil etish maqsadida, turli ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (1-jadval).

Ushbu tuzilma talabani bilim iste'molchisidan axborot va dasturiy mahsulot yaratuvchisi sifatidagi kasbiy evolyutsiyasini ta'minlaydi. Ularaning kognitiv tayyorgarlik darajasi algoritmik murakkablikni baholash, ma'lumotlar tuzilmalarini optimallashtirish hamda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim platformalari zamonaviy dasturiy vositalar asosida yaratilib, uning funksional yadrosini Python dasturlash tili hamda uning ilmiy kutubxonalari (NumPy, Pandas, Matplotlib) tashkil etadi. Foydalanuvchi interfeysi web texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, server qismi ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarishni ta'minlaydi. Bunda talaba an'anaviy yondashuvdan farqli ravishda tayyor topshiriqlarni bajarish bilan cheklanmay, balki to'liq ilmiy-tadqiqot tsiklini amalga oshiradi: ilmiy gipoteza ilgari suradi, tajriba o'tkazadi, olingan natijalarni tahlil qiladi va ularni vizual vositalar yordamida ifodalaydi.


Turli ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

<i>Yondashuv turi</i>	<i>Asosiy vakillari</i>	<i>EATM fenomeniga berilgan ta'rif</i>	<i>Tadqiqotchilik faoliyati uchun ahamiyati</i>
Konnektivistik va Global	G. Siemens, A. Bates, UNESCO ekspertlari	Ochiq tarmoqli muloqot, bilimlarni taqsimlangan holda yaratish ekotizimi, global resurslarga kirish nuqtasi	Talabani xalqaro ilmiy hamjamiyat va global ma'lumotlar bazalari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'laydi
Standartlashtirilgan va nazorat-asosli	G.Akhmetzyanova, A.Bagatееva, MDH olimlari	Davlat standartlarini ta'minlovchi apparat-dasturiy majmua, mustaqil ta'limni monitoring qiluvchi va boshqaruvchi tizim	Tadqiqot jarayonini tizimlashtiradi, o'zlashtirish va ilmiy izlanishlarni bosqichma-bosqich nazorat qiladi
Infratuzilmaviy va Metodik (Mahalliy)	A.A. Abduqodirov, O.X. To'raqulov, D. Mamatov	Dasturiy-kommunikatsion vositalar jamlanmasi, o'quv-metodik ta'minot va kasbiy ehtiyojlarni raqamli muhitda qondirish vositasi	Informatika fanlarining didaktik vositalarini (laboratoriyalar, amaliy dasturlar) yagona platformaga birlashtiradi

Mazkur jarayon talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mazmunda talabani nazariy bilim egasidan amaliy faoliyat yurituvchisiga, kompetensiyaviy funksiyalari sifatida amaliy-kasbiy faoliyatga oid hatti-harakatlar algoritmini raqamli muhitda o'rgatish metodikasini hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid hatti-harakatlar algoritmini raqamli muhitda o'rganish va IT-mutaxassisga aylanish imkoniyatlarini yaratadi.

Dissertatsiyaning "Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning amaliy-metodik jihatlari bayon etilgan. Unda elektron ta'lim vositalari asosida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiy komponentlari, bosqichlari hamda ishlash mexanizmlari asoslab berilgan. Modelda muammo qo'yish, ilmiy izlanish olib borish, natijalarni tahlil qilish va rasmiylashtirish bosqichlari integrativ yondashuv asosida tizimli ravishda yoritilgan.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi o'zaro bog'liq omillar majmuasiga asoslanib, ularning individual tadqiqotchilik qobiliyatlari hamda o'quv-ilmiy jarayonda shakllangan tajriba darajasi bilan belgilanadi. Informatika va hisoblash texnikasi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligi rivojlangan, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashda elektron axborot-ta'lim muhitini modellashtirishning umumilmiy nazariy asoslarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, "modellashtirish" tushunchasining gnoseologik mazmuni hamda "model" tushunchasining ontologik mohiyatini aniqlashtirish zarur. Etimologik jihatdan "model" atamasi fransuzcha *modele* va lotincha *modulus* so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, o'lchov, namuna va me'yor ma'nolarini anglatadi(1-rasm).




1-rasm. Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash modeli

O.I.Klopova va V.N.Lisachkina tadqiqotlarida model real jarayonlar, ularning strukturaviy aloqalari va sabab-oqibat bog'liqliklarini aks ettiruvchi tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, model murakkab voqelikning muhim jihatlarini soddalashtirilgan holda ifodalovchi ilmiy vosita hisoblanadi. Tayyorgarlik tushunchasi faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni yangi va noan'anaviy vaziyatlarda qo'llash, ilmiy gipotezalarni tekshirish hamda ijodiy yondashuv asosida muammolarni hal etish qobiliyatini ham qamrab oladi. Biz tomomonimizdan taklif etilayotgan model tizimlilik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanib, qayta aloqa mexanizmi orqali samarali faoliyat yuritadi hamda o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat.

Shunday qilib, maqsad komponentda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligi, mazmuniy komponentda aniq harakatlar va ko'nikmalar nazariyasi, metodologik komponentida integrativ, faoliyatiy, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar hamda faoliyatiy komponentida talabaning katta hajmli, murakkab ma'lumotlar to'plamlarini tahlil qilish, ularni qayta ishlash hamda ulardan muhim qonuniyatlarni aniqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu komponent doirasida talaba ma'lumotlarni tozalash, ijtimoiy va texnik jarayonlarni matematik modellashtirish hamda turli sohalar uchun raqamli yechimlarni loyihalash ko'nikmalarini egallaydi.

Bunda ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi raqamli intellektual platformalar tadqiqot jarayonining ajralmas metodologik komponentiga aylanmoqda. Ular ilmiy matnlarni tayyorlash, ularni xalqaro IMRaD standarti asosida tahlil qilish, manbalarni aniqlash va akademik sifatni nazorat qilish imkoniyatini beradi.



2-rasm. Ilmiy matnlarni IMRaD standarti asosida tahrirlash va strukturaviy monitoring qilishga mo'ljallangan akademik master-klass muharriri interfeysi

Ushbu yondashuv ilmiy matn tayyorlash jarayonida aniqlikni oshirish, uslubiy xatolarni kamaytirish hamda talabalar va tadqiqotchilarning akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modulning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u ilmiy maqola, dissertatsiya va boshqa akademik matnlarni tayyorlashda sifatini oshirish, yozuv madaniyatini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga mos rasmiylashtirish jarayonini yengillashtiradi.

IMRaD modeli asosida tashkil etilgan strukturaviy nazorat mexanizmlari ilmiy matnda mantiqiy izchillikni ta'minlab, tadqiqot natijalarining o'qilishi va qabul qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Grammatik monitoring va antiplagiat tizimlarining integratsiyasi ilmiy halollikni ta'minlash bilan birga, tadqiqotchining akademik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Platformada foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ilmiy matn sun'iy intellekt asosida qayta ishlanib, uning mantiqiy izchilligi, grammatik to'g'riligi hamda ilmiy uslubga mosligi tahlil qilinadi. Shuningdek, tizim matndagi kamchiliklarni aniqlash, takliflar berish va ilmiy jihatdan takomillashtirish imkonini yaratadi.

Mazkur modul orqali foydalanuvchi ilmiy izlanish jarayonining asosiy bosqichlarini – muammo qo'yish, ma'lumot izlash, tahlil qilish, natijalarni rasmiylashtirish va taqdim etishni interfaol tarzda amalga oshiradi.

Tizimda foydalanuvchining rivojlanish darajasi monitoring qilinib, uning ilmiy faoliyat ko'rsatkichlari (analitik fikrlash, mantiqiy izchillik, natijaviylik) asosida baholanadi. Ushbu yondashuv talabalarni passiv o'rganuvchidan faol tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli intellektual platformalardan foydalanish ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish, ularning nashrga tayyorlik darajasini yaxshilash va xalqaro ilmiy maydon bilan integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Kognitiv kompetensiyani shakllantirish ushbu Global ilmiy ma'lumotlar tahlili platformasida ilmiy izlanishlar bilan ishlash talabalarda ilmiy bilimlarni anglash va mazmuniy tahlil qilish jarayonlarini faollashtiradi. Ilmiy qidiruv tizimi mavzuga mos manbalarni aniqlab berishi natijasida talaba mavzuning konseptual mazmunini chuqurroq tushunadi, ilmiy tushunchalar, terminlar va kategoriyalarni aniq idrok etadi. Platformada taqdim etilgan ilmiy maqolalarni o'qish va tahlil qilish muhiti adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada, talabaning ilmiy bilimlar bazasi kengayib, muammo qo'yish, ilmiy axborotni qayta ishlash, natijalarni umumlashtirish va rasmiylashtirish jarayoni tizimli tus oladi.

Uchinchi bob **“Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari va uning natijalari”** deb nomlangan bo'lib, unda olib borilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, metodikasi va natijalari tahlil qilingan. Ushbu bobda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, ular asosida tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan.

Mazkur tadqiqot doirasida elektron axborot-ta'lim muhiti (EATM) asosida ishlab chiqilgan talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash texnologiyasining samaradorligini aniqlash maqsadida keng qamrovli pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari 2023–2026 yillarda Qarshi davlat texnika universiteti,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali, shuningdek, Farg'ona davlat texnika universitetining "Kompyuter injiniringi", "Axborot xavfsizligi" va "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" yo'nalishlarida tahsil olayotgan 3-bosqich bakalavrlari ishtirokida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilinib, taklif etilgan pedagogik model va texnologiyalarning samaradorligi o'z tasdig'ini topgan. Olingan natijalar tahlili talabalarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarining sezilarli darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Mazkur holat ishlab chiqilgan metodik tizimning amaliy jihatdan samaradorligini tasdiqlaydi. Ishning yakuniy qismida umumlashtiruvchi xulosalar shakllantirilib, tadqiqot natijalari asosida ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.


Mazkur tavsiyalar elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik jarayonini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan.

2-jadval

Tajriba-sinov yakunidagi natijalar statistik tahlili

Talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmasi rivojlanganlik darajasi	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 195 nafar talaba		Tajriba oxirida 195 nafar talaba		Tajriba boshida 189 nafar talaba		Tajriba oxirida 189 nafar talaba	
	soni	%	soni	%	Soni	%	soni	%
Yuqori daraja	39	20	74	37,94	38	20,10	41	21,70
O'rta daraja	57	29,23	84	43,08	55	29,10	68	35,98
Quyi daraja	99	50,77	37	18,98	96	50,80	80	42,32
Jami	195	100	195	100	189	100	189	100

Talabalardan olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, Qarshi davlat texnika universitetida talabalarining samaradorligi 7,14%ga, TATU Samarqand filiali talabalarining samaradorligi 7,20%ga, va Farg'ona davlat texnika universiteti talabalarining samaradorligi 7,95% ga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi 1-jadvaldagi variatsion qatorning gistogrammasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Talabalarining tajriba-sinov yakunida o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi diagrammasi (FDTU)

Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, biz tomonidan tavsiya etilgan o'qitish metodikasi an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. O'tkazilgan tadqiqotlar ilgari ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'riligini tasdiqladi.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tizimning pedagogik tajriba-sinovga joriy etilishi natijasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatining samaradorligi barcha pedagogika oliy ta'lim muassasalari bo'yicha o'rtacha 10,4%ga oshgani kuzatildi.

Mazkur dasturiy-didaktik ta'minotning funksiyalari talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga samarali jalb etish va ularning faoliyatini boshqarishga qaratildi. Xususan, u ta'limiy-ilmiy loyihalarni tashkil etish, jarayonni real vaqt rejimida nazorat qilish, natijalarni baholash hamda talabalar faoliyatini individuallashtirish funksiyalarini bajaradi. Shu orqali talabalar tomonidan ilmiy faoliyatni tizimli va samarali amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

“Elektron axborot-ta'lim muhitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari” mavzusi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari:

1. Talabalarning rivojlanganlik darajasi ularning ilmiy-tadqiqotchilik masalalarini mustaqil yechish imkoniyati bilan belgilanib, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari amaliy-kasbiy faoliyatga oid hatti-harakatlar algoritmiga bog'liq bo'ladi.

3. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayorgarligining integrativ sifat tizimi raqamli muhitda o'rgatish metodikasini ilmiy kontekst sintezida maqbullashtirish asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini izlanuvchilikning muammo qo'yish, tajriba, natijalarni umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichlarida, ularning raqamli moslashuvchanligini mobil resurslar kombinatsiyasida individual ta'minlash modeli asosida oshirish mumkin.

5. Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-didaktik ta'minoti ta'limiy-ilmiy loyihalarning raqamli konstruksiyalarini individual, frontal algoritmlar va real vaqt rejimlarida nazorat topshiriqlariga hamohangligini ta'minlashni taqozo etadi.

6. Interfaol elektron axborot-ta'lim kontentini loyihalash - ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda kompyuter vositasida o'qitish dasturlari, dasturiy ta'minot (Word, Access, Excel ofis vositalari), tarmoq resurslari (intellektual va o'quv saytlari, qidiruv tizimlari, elektron kutubxonalar, nashriyot tizimlari) bosh omili sifatida xizmat qiladi.

7. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv mezonlari axborot, texnik va o'quv metodik resurslar integratsiyasida baholash elektron-ta'lim muhiti samarasini belgilaydi hamda Global ilmiy ma'lumotlar tahlili tizimida raqamli metodika modifikatsiyasi ustuvorligida amalga oshadi.

8. Statistik tahlillar tajriba-sinov davomida talabalarning mustaqil izlanish ko'nikmalari, manbalar bilan mustaqil ishlash sifat ko'rsatkichlari ya'ni, tajriba guruhining nazorat guruhiga nisbatan samaradorlik 10,4% ga o'sganligini ko'rsatdi.

TAVSIYALAR:

1. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy izlanish jarayonlarini sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar hamda interfaol elektron platformalar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish.

2. Elektron ta'lim muhitida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda real vaqt monitoringini ta'minlovchi "Global ilmiy ma'lumotlar tahlili" (<https://www.openscholia.com/>) interaktiv intellektual platformasidan keng foydalanish.

3. Oliy ta'lim muassasalarida kognitiv, motivatsion, faoliyatiy va reflektiv komponentlarga asoslangan kompleks pedagogik tizimni tatbiq etishda ilmiy muammo qo'yish, tajriba o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va rasmiylashtirish bosqichlarida talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish.

4. Elektron axborot-ta'lim muhitida ilmiy-tadqiqot faoliyatining dasturiy-didaktik ta'minotini takomillashtirishda interfaol elektron kontentlar, adaptiv o'quv platformalari, ilmiy loyihalarni boshqarishga mo'ljallangan raqamli konstruktiv tizimlar hamda OCR-semantik tahlil texnologiyalaridan foydalanishni o'quv jarayoniga keng joriy etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АХУНОВА ТАМАННО ЗОКИР КИЗИ

**ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЭЛЕКТРОННОЙ
ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

13.00.06 – Теория и методика электронного образования

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Чирчик – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1. PhD/Ped9688.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.yangi.cspu.uz) и на информационно-образовательном портале «Zionet» (www.zionet.uz).

Научный руководитель: Шарофутдинова Раънохон Шавкатовна
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
доцент

Официальные оппоненты: Сариев Рустам Бобомурадович
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
доцент

Файзиева Махбубахон Рахимжоновна
доктор педагогических наук (DSc), профессор


Ведущая организация: Андижанский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится "2" 06 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 по присуждению ученых степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, 104. Тел.: (998) 71-712-27-55.; факс: (998) 71-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрировано за № 483). (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, 104. Тел.: (998) 71-712-27-55.; факс: (998) 71-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Автореферат диссертации разослан "18" 05 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № 18 от "18" 05 2026 года).


Ф.У.Кодирова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

И. Д.Кодиров
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.п.н. (PhD), доцент

Д.О.Химматалиев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на всех этапах системы непрерывного образования внедрены механизмы формирования электронной информационно-образовательной среды, развития информационных компетенций, обучающихся и обеспечения информационной безопасности. Особую актуальность приобретает создание в системе высшего образования электронной информационно-образовательной среды, ориентированной на профессиональную практику, а также модификация программного обеспечения для мониторинга академической и социальной деятельности студентов. Развитие научно-исследовательской деятельности в условиях электронной информационно-образовательной среды в мировом масштабе последовательно реализуется в рамках универсальных политико-правовых программ, разработанных ЮНЕСКО, Всемирным банком и Европейской комиссией². В данном контексте ключевое значение имеет интегративное развитие исследовательских компетенций студентов, включающих в себя выдвижение научных гипотез, построение моделей, аналитическое мышление и использование технологий искусственного интеллекта для получения научных результатов.

В ведущих высших учебных заведениях и научно-исследовательских центрах мира проводятся исследования, направленные на создание благоприятной и адаптивной среды, основанной на современных моделях цифровых образовательных ресурсов, реализацию интеллектуального и творческого потенциала будущих специалистов, расширение их доступа к возможностям электронной информационно-образовательной среды. В частности, особое внимание уделяется целевому использованию цифрового контента в процессе формирования научного мировоззрения будущих специалистов и созданию безопасного открытого информационного пространства. При этом в рамках компетентностно-ориентированной парадигмы организации научно-исследовательской деятельности особую значимость приобретает моделирование электронной информационно-образовательной среды с учётом индивидуальных особенностей студентов, внедрение форм обучения, ориентированных на стили усвоения информации, трансформация информационно-коммуникационных технологий с учётом их профессиональной направленности.

В нашей стране разработаны нормативно-правовые основы создания глобального информационного пространства, обеспечивающего свободное и эффективное перемещение обучающихся в его пределах. Определены задачи по внедрению на территории страны технологий «программное обеспечение как услуга» (SaaS), «платформа как услуга» (PaaS) и «инфраструктура как услуга» (IaaS) в рамках хранения, обработки и защиты информации для государственных органов, физических и юридических лиц, а также цифровизации деятельности государственных органов и предоставления электронных государственных

² UNESCO ICT in Education Policy Review, 2020.

услуг. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость уточнения педагогико-психологических условий, способствующих развитию информационно-коммуникативной компетентности и исследовательских навыков в организациях подготовки специалистов, определения дидактических требований к информационно-коммуникативной среде.

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, изложенных в Указах Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному улучшению условий для развития сферы информационных технологий в республике» за № УП-5099 от 30 июня 2017 года, «О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций» за № УП-5349 от 19 февраля 2018 года. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» за № УП-5847 от 8 октября 2019 года, «Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по её эффективной реализации» за № УП-6079 от 5 октября 2020 года, «О мерах по развитию сферы образования и науки в период развития Нового Узбекистана» за № УП-6108 от 6 ноября 2020 года, «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» за № УП-60 от 28 января 2022 года и других нормативных правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

